



## G'AFUR G'ULOMNING "SHUM BOLA" QISSASI MATNI USTIDA ISHLASH BO'YICHA TOPSHIRIQ VA TAVSIYALAR

Malika Jazilova Bekmirzayevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti o'qituvchisi

malikazazilova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10718073>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-fevral 2024 yil  
Ma'qullandi: 24-fevral 2024 yil  
Nashr qilindi: 26-fevral 2024 yil

### KEY WORDS

Matn Blits so'rov, savol-javob,  
og'zaki hikoyalash, klaster,  
taqqoslash.

### ABSTRACT

Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarning tahlil malakalarini shakllantirish badiiy matn ustida ishlashning turli shakl va metodlaridan doydalanish haqida gap ketadi. Dars jarayonida o'quvchilar matn tagzaminidagi bosh g'oyani aniqlash, asar mazmunini tahlil qilish, to'g'ri, ifodali va ongli o'qish, asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini baholash, asar kompozitsiyasi va sujeti qismlarini belgilash, asar bilan tanishtirish, badiiy asar matni ustida ishlash usullari haqida ochiq dars ishlanmasi keltirilgan.

### Ochiq dars ishlanmasi

Dars rejasи:

Sinflar	6- "A"	6- "B"	6- "V"
Sana			

O'quv fani: Adabiyot

Mavzu: G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

**1. Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni oila, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, insonga xos bo'lgan ezgu fazilatlarni kamol toptirish.

**2. Ta'limiylar maqsad:** o'quvchilarning asar yuzasidan olgan bilimlarini umumlashtirish, asar g'oyasi, muallif ko'zlagan maqsad, sujet rivojidagi voqealarning ahamiyati haqidagi bilimlarini mustahkamalash.

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, og'zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirish.

**O'quvchilarda shakllantiruvchi kompetensiyalar:**

**Tayanch kompetensiyalar:** shaxs sifatida o'zini o'zi rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash, milliy va umunsoniy qadriyatlarga hurmat

**Fanga oid kompenesiyalar:** qissa janriga xos xususiyatlarni o'zlashtirish, asarning bos g'oyasini ajarata bilish, qahramonlarga tavsif bera olish

**Darsning vazifalari:** matn ustida ishslashga doir yondashuvlar

**Dars turi:** umumlashtiruvchi

**Dars metodi:** Blits so'rov, savol-javob, og'zaki hikoyalash, klaster, taqqoslash

**Dars shakli:** guruhlarda ishslash

**Dars jahozi:** darslik, G'afur G'ulom suratlari va asarlari, "Shum bola" filmiga ishlangan filmdan kadrlar, tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

**O'qituvchi:** \_\_\_\_\_  
(imzo)

(F.I.SH)

### **Darsning blok-sxemasi**

Ishning nomi	Bajariladigan ishlar mazmuni	Belgilangan vaqt
<b>1-bosqich.</b> Tashkiliy qism	1. Salomlashish. 2. Sinf xonasining darsga hozirligini nazorat qilish. 3. O'quvchilarning darsga hozirligini kuzatish. 4. Dars rejasi bilan tanishtirish.	4 daqiqa
<b>2-bosqich.</b> O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash	Uy vazifasini vazifani "Blits-so'rov" usulida aniqlash va baholash.	10 daqiqa
<b>3-bosqich.</b> Asar matni ustida ishslash	Asarni tahlil qilish, rasmi ko'rsatmalardan foydalanish. Savol-javob, og'zaki hikoyalash, klaster, taqqoslash.	20 daqiqa
<b>4-bosqich.</b> Mavzuni umumlashtirish	Asar yuzasidan fikrlarni umumlashtirish.	6 daqiqa
<b>5-bosqich.</b> Baholash	1. O'quvchilar faoliyatini tahlil qilish. 2. Baholash, faol o'quvchilarni rag'batlantirish. Baholarni izohlash.	2 daqiqa
<b>6-bosqich.</b> Darsning yakuni	1. Uyga vazifa: asardagi qahramonlardan birining ichki va tashqi qiyofasini tasvirlab matn tuzish (so'z orqali va grafik tarzda). 2. Vazifa mazmunini tushuntirish.	3 daqiqa

### **Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Salomlashish, o'quvchilarning darsga hozirligini kuzatish, davomatni aniqlash, ishchanlik vaziyatini yuzga keltirish.

**II. Uy vazifasini baholash.** Dars o'quvchilarni guruhlarga ajratishdan boshlanadi. Ular qiziqishlariga va asar matniga asoslangan holda "Yosh adabiyotchilar", "Yosh tilshunoslar" va "Yosh folklorshunoslar" deb nomlanuvchi guruhlarga ajratiladi. So'ngra umumiy tarzda "Blits-so'rov" asosida quyidagi savollar o'rta ga tashlanadi. Ular o'quvchilarning "Shum bola" qissasining mazmunini qanchalik o'zlashtirganligini tekshirish imkonini beradi:



Savollar	Javoblar
"Shum bola" qissasi qachon yozilgan?	
"Innaykeyin"chi boyning ismi nima?	
Hojibobo ochgan yig'ingohning nomi qanday ataladi?	
Qissadagi pulni o'g'irlab egasini rozi qilgan o'g'ri kim?	
Shum bolaning do'stlari kimlar?	
Omonning fikricha danagiga "alif" yozdirish uchun Makkaga borib kelagigan daraxtning nomi nima?	
Sariboy yutib olgan Yusuf Kontorning bog'i qayerda joylashgan?	
Sariboy Shum bolaning qaysi xabaridan keyin hushidan ketadi?	
Shum bola tandirda yegan taomning nomi nima?	
Shum bola pochchasining qaysi qushini o'g'irlab lo'lilarga movoza qiladi?	
Shum bola takyaxonadan nima uchun haydaladi?	
Asar asosida yaratilgan filmda qahramon obrazini yaratgan aktyorning nomini ayting.	
Asar asosida yaratilgan filmda qahramon obrazini yaratgan aktyorning nomini ayting.	
Videofilmda rol ijro etgan aktyorlarning ism-shariflarni ayting.	

**III. Asar matni ustida ishlash.** O'quvchilardan tezkor savollarga javob olib bo'linganidan so'ng har bir guruhga o'z nomi bilan bog'liq quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-TOPSHIRIQ:**

**"Yosh adabiyotshunoslar"** "Shum bola" nima sababdan qissa deb nomlanishini asoslaydilar. Uning sujeti, kompozitsiyasi, tuguni va yechimi haqida fikr bildiradilar.

**"Yosh tilshunoslar"** asar tiliga mansub obrazli ifodalar, frazeologik birikmalarning izohini beradilar. Masalan:

- 1. Dialektlar:** mavoza – ayirboshlash; jigit – yigit; gourt – gugurt; lagan –tovo.
  - 2. Frazeologik birikmalar:** yopig'liq qozon yopig'liq; tuya ko'rdingmi – yo'q; chap yonboshi bilan turgan; to'daga urding – qutuldin.
  - 3. O'xshatishlar:** surra to'n kiygan eshonday ko'rinishi; g'ubori qoqilmagan namatdek bashara; paypoq dor; tovuqday kalovlanmoq; it quvgan tulkiday olazarak.;
  - 4. Sifatlash:** moshkichiri soqolli; tering sangobda chirigur sigir.
- "**Yosh folklorshunoslar**" qissa matnda uchraydigan maqollar, miflar, lapar va boshqa xalq og'zaki ijodiga mansub janrlarni to'plab taqdim etadilar.
- 1. Miflar:** jiyya daraxti haqidagi Omonning mulohazalari.
  - 2. O'yin nomlari:** "Kurash", "Botmon-botmon", "Oq terakmi-ko'k terak", "Bekinmachoq", "Qushimboshi". Bu o'yinlarning qachon, qaysi mavsumda, qanday shakl va mazmunda o'ynalishi jadvalning o'ng tomoniga izohlanishi topshirig'i beriladi.

O'yin nomlari	O'ynaladigan mavsumi, joyi, kimlar bilan, nima maqsadda
"Kurash"	
"Botmon-botmon"	
"Oq terakmi-ko'k terak"	
"Bekinmachoq"	
"Qushimboshi"	

- 3. Xalq qo'shiqlari:** "Dukur-dukur ot kelur...", "Bugun bozorga o'xshaydir...", "Otasi o'limgan kim bor...", "Daryo to'lqin, suvlar toshqin...".

Qo'shiqlar nomi	Ijro joyi, ijrochilari, mazmuni
"Dukur-dukur ot kelur..."	
"Bugun bozorga o'xshaydir..."	
"Otasi o'limgan kim bor..."	
"Daryo to'lqin, suvlar toshqin..."	

O'quvchilar mazkur topshiriqlarni bajarib bo'lishganidan so'ng ularning faoliyatlari baholanadi.

**2-TOPSHIRIQ:** So'ngra ularni matn mohiyatiga mustaqil ravishda yanada chuqurroq kirishlari uchun navbatdagi topshiriqlar beriladi:

"**Yosh adabiyotchilar**"ga asarda uchraydigan o'lchov biriklarini kompyuter orqali namoyish etish va guruh a'zolaridan ularning izohini so'rash. Masalan:

O'lchov birliklari nomi	Hozirgi kundagi nomlanishi
1miri (5 tiyin)	
1 tanga	
1gaz pud	
1 paqir	
3,5 so'm	
2 so'm	
9 pul	

"**Yosh tilshunoslar**"ga kompyuterda asarda keltirilgan o'simlik va jonzotlar nomlari ko'rsatiladi:

**a) qushlarning nomlari:** to'ti, zarg'aldoq, chittak, qumri, itolg'i, qirg'iy, miqqiy, kalkat va boshqalar;



to'ti



zarg'aldoq



chittak



qumri



qirg'iy



kalxat

b) hayvonlarning nomlari: *mol, ot, echki-uloq, qo'y, buqa* va boshqalar.

sigir



ot



echki



qo'ylar



d) gullarning nomi: *gulbeor, gulira'no, qo'qongul, qalampirgul, sambitgul, qashqargul* va hokazo;



e) o'simlikalarning nomi: *zanjabil*, *kuchala*, *beda* o 'ti, *tariq* va boshqalar.



Guruh a'zolaridan ularning shakl-u shamoyili, o'ziga xos xususiyatlariiga bilganlaricha izoh berishlari so'raladi.

**"Yosh folklorshunoslar"** guruhiba asardagi joy nomlarini izohlash topshirig'i beriladi:  
*Toshkent*, *Tepaguzar*, *Kalas daryosi*, *Tikonli mozor*, *Devonbegim*, *Qo'rg'ontagi*, *Ko'kterak*,  
*Olmazor*.

<b>Joy nomlari (toponimlar)</b>	<b>Joy turi</b>
Toshkent	
Tepaguzar	
Kalas daryosi	
Tikonli mozor	
Devonbegim	
Qo'rg'ontagi	
Ko'kterak	
Olmazor	

O'quvchilarning bu topshiriqlar bo'yicha bajargan ishlari baholanadi va ularga asar yuzasidan klaster tuzish topshrig'i beriladi.

**3-TOPSHIRIQ:** Bunda har bir guruh a'zolari asar qahramoni Shum bola, Sariboy yoki Hoji bobo kabi qahramonlarga xos sifatlar klasterini tuzadilar. Qahramonlarning tabiatiga xos bo'lgan jihatlarni sanaydilar. Xususan, bunda Qoravoyning qanday bola ekanligi izohlanib, shaxsiga baho beradilar. Shu tariqa har bir guruh a'zolari asar nima uchun "Shum bola" deb nomlanishi va Qoravoyning xarakteri haqida o'z xulosasiga ega bo'ladi. Asar qahramoni xarakteriga munosabati shakllanadi. Masalan, Qoravoy shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar (yaxshi yoki zararli

odatlari)ni tarmoqlar orqali ifodalaydilar. Shu asosda muayyan qahramon ichki va tashqi portretining muhim qirralari ochila boradi.



**4-TOPSHIRIQ:** Keyingi topshiriq “O’zaro qiyoslang” deb nomlanib, bu jarayonda uchala guruh a’zolariga qissa asosida suratga olingan “Shum bola” filmidan quyidagi lavhalar namoyish etiladi va ularning fikrlari tinglandi:

1. **“Yosh adabiyotshunoslar”** guruhiga: Qoravoyning “Onasiga o’t yoqib berish” lavhasi
2. **“Yosh tilshunoslar”** guruhiga: “Sariboy bilan Qoravoyning suhbati” lavhasi
3. **“Yosh folkloshunoslar”** guruhiga: “Hojiboboning takyaxonasiagi bangilar suhbati” lavhasi.

**V. Barcha topshiriqlar bo'yicha o'quvchilarning olgan ballari umumlashtirib, baholanadi.** Faol ishtirok etgan guruhsalar va a'zolari rag'batlantiriladi.

**VI. Darsning yakuni.** Uyga vazifa: “Asardagi qahramonlardan birining ichki va tashqi qiyofasini tasvirlab matn tuzish (so’z orqali va grafik tarzda). Qo’shimcha holda xohlagan o’quvchilarga “Sariq devni minib” asaridagi Hoshimjon hamda “Shum bola”dagi Qoravoy sarguzashtlari taqqoslab, o’xshash va farqli jihatlarni aniqlash uy vazifasi sifatida topshiriladi.

Yuqoridagi yondashuvlardan ma'lum bo'ladiki, matn ustida ishlash asar mazmunini tahlil qilish, to'g'ri, ifodali va ongli o'qish, asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini baholash; asar kompozitsiyasi va sujeti qismlarini belgilash; asar bilan tanishtirish (ifodali o'qish, og'zaki qayta hikoyalash, so'zlab berish, yoddan aytish, dialoglar ustida ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish); badiiy asar matni ustida ishlash (tanlab o'qish, o'quvchilarning berilgan savollarga o'z so'zлari bilan javob berish, savol tuzishga o'rgatish, matnni so'z bilan va grafik tasvirlash, asar rejasini tuzish, izohlash) kabi texnologiyalar sinflar kesimida, o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining rivojlanganlik darjasida, shuningdek, badiiy asarlarning janri va mavzusi doirasida qo'llanilsa muayyan samaradorlkni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Гофур Ғулом. Шум бола. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 223 б.
2. <http://library.navoiy-uni.uz/>.
3. <https://lex.uz/docs/3171590>.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.